

## O'ZBEKISTON AMALIY SAN'AT VA HUNARMANDCHILIK TARIXI MUZEYIDAGI ZARGARLIK BUYUMLARINING TAHLILI

*Rustam Pardaboyev*

*Annotatsiya:* Maqolada o'zbek san'at tarixini O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik davlat muzeyi misolida o'rganilgan. Maqolada O'zbekistonda muzeychilik faoliyati haqida ham so'z boradi. Shuningdek, muzeydagi begilab olingan 53 ta zargarlik buyumlari ilmiy jihatdan o'rganildi va har bir zargarlik buyumning o'rganish natijalari jadvallarda aks ettirildi.

*Kalit so'zlar:* san'at, hunarmandchilik, zargarlik, muzey, zebigardin, bilaklik

## ANALYSIS OF JEWELRY IN THE MUSEUM OF THE HISTORY OF APPLIED ARTS AND CRAFTS OF UZBEKISTAN

*Rustam Pardaboyev*

*Annotation:* The article studies the history of Uzbek art using the example of the State Museum of Applied Arts and Crafts of Uzbekistan. The article also discusses museum activities in Uzbekistan. Also, 53 pieces of jewelry taken from the museum were scientifically studied, and the results of the study of each piece of jewelry are reflected in tables.

*Keywords:* art, crafts, jewelry, museum, jewelry, bracelet

San'at - ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan. Ibtidoiy san'atning dastlabki izlari so'nggi paleolit davriga, taxminan miloddan avvalgi 40-20-ming yillikka borib taqaladi. U davrda hali san'at inson faoliyatining mustaqil shakli sifatida ajralib chiqmagan edi.

Keyinchalik madaniyatning o'sishi natijasida san'at alohida soha sifatida asta-sekin ajralib bordi.<sup>1</sup>

San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Estetik tafakkur tarixida san'at narsa va hodisalarni qanday bo'lsa shunday aks ettirish hamda hayotni go'zallik qonunlari asosida badiiy ifodalash g'oyalari sari yuksalib bordi. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy, milliy dunyosi san'at predmeti hisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy-estetik ideal nuqtayi nazardan munosabat bildiradi va o'z estetik bahosini beradi.<sup>2</sup>

Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, kemasozlik, taqachilik, tunukasozlik va boshqalar)ga ajraldi. Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, mas, paxta va pilla bor yerda to'qimachilik, sifatli xomashyo bor yerda kulolchilik, jun va teri ko'p yerda to'qimachilik va ko'nchilik, shunga qarab kosibchilik, o'rmonlar ko'p yerda yog'ochsozlik, ma'danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo'ylarida kemasozlik va boshqa rivoj topgan.<sup>3</sup>

Zargarlik san'ati nafaqat go'zallikni yaratishga, balki uning har bir asari orqali insonlarning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy aloqalari, va o'z madaniyatini anglashga yordam beradi. Misol uchun, zargarlik buyumlaridagi naqshlar, ranglar va materiallar orqali xalqning qadriyatlari va urf-odatlari aks

<sup>1</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2000, b. birinchi jild, Toshkent

<sup>2</sup> Aristotel, 1980, Poetika (ruschadan M. Mahmudov va U. Tuychiyev tarjimasini, b. 69

<sup>3</sup> O'zbekiston Milliy Enkislopediyasi, 2005, b.1054

etadi. Bu buyumlar, ayniqsa, to'ylar, marosimlar, va boshqa muhim ijtimoiy voqealarda ishlatiladi va madaniy an'analarni saqlashda rol o'ynaydi. Zargarlik san'ati, shu tariqa, faqat estetik bir faoliyat emas, balki jamiyatni birlashtiruvchi, identifikatsiya qiluvchi va madaniy boylikni saqlovchi jarayondir.<sup>4</sup>

### O'zbekistonda Muzeychilik

**Muzey** (qadimgi yunoncha: *μουσεῖον*, *musion* – “muzalarga bag'ishlangan joy”) - tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma'rifiy muassasa. Muzey xazinasida, asosan, moddiy va tasviriy narsalar, shuningdek, san'at asarlari jamlanadi, shu bilan birga yozma manbalar (qadimdan hozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy qimmatga ega qo'lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi. Xorazm-qadimgi Buyuk ipak yo'lining markazida joylashgan. Xivaning xalqaro “Ochiq osmon ostidagi muzey shahar” deb e'firof etilishi va jahon turizm bozoridan munosib o'rin egallashga mustahkam zamin yaratgan.<sup>5</sup> (**Buriboyev, A.** 2010).

O'zbekistonda muzey 19-asrning 2-yarmida tashkil etila boshlagan. 20-asr boshida O'zbekistonda faqat uchta muzey: Toshkent o'lkashunoslik muzeyi (1876, hozirda O'zbekiston tarixi muzeyi), Samarqand xalq muzeyi (1896, hozirgi Akmal Ikromov nomidagi O'zbekiston xalqlari madaniyati va san'ati tarixi muzeyi), Farg'ona xalq muzeyi (1899, hozirgi Farg'ona viloyati o'lkashunoslik muzeyi). Ularning to'plamlari kam, eksponatlarining ko'pi tasodifiy materiallardan tashkil toptan. 20-asr 20-yillaridan turli sohadagi muzey tashkil etila boshlangan. Muzeylar va madaniyat yodgorliklari davlat ixtiyoriga o'tkazilib, muhofaza qilina boshlandi. Ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirilib, muzey uchun kolleksiyalar to'plash ishi yo'lga qo'yilib, ko'plab muzey tashkil etildi. Hozir O'zbekistondagi muzeyning asosiy qismi O'zbekiston madaniyati ishlari vazirligi (hozirgi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi) qaramog'ida.

<sup>4</sup> Karimov, I. A., 1996, s.179

<sup>5</sup> Tursunov, S. 1975

Yirik muzeylar: O‘zbekiston tarixi muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston san’at muzeyi (1918), Akmal Ikromov nomidagi O‘zbekiston xalqlari madaniyati va san’ati tarixi muzeyi, O‘zbekiston tabiat muzeyi (1876) va boshqalar. Respublikaning deyarli barcha viloyatlarida o‘lkashunoslik muzeyi, jahon ahamiyatiga molik memorial muzey bor (**Tursunov, S. 1975**).



### *O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi*

O‘zbekiston amaliy san’at muzeyi (hozirgi “O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi”)-Toshkentda joylashgan. 1937-yilda vaqtinchalik hunarmandchilik ko‘rgazmasi negizida tashkil etilgan va muzeyning ko‘rgazma kolleksiyalarida O‘zbekiston bezak san’ati tarixini ochib beruvchi 4 mingdan ortiq eksponatlar mavjud bo‘lgan. Masalan: Yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, bo‘rtmachilik, zargarlar, zardo‘zlik tikuvchilar, kashtachilar san’ati, mahalliy sanoatning ommaviy ishlab chiqarish namunalari.

Muzey haqida “O‘zbektelefilm”da “Amaliy san’at muzeyi” (2003), “Amaliy san’at muzeyi ekspozitsiyalari bo‘ylab sayohat” (2004) filmlari ishlangan. 1960-yilda „O‘zbekiston amaliy san’atining doimiy ko‘rgazmasi“ nomini oldi.

1997-yilda muzey O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufiga o‘tib, “Davlat amaliy san’at muzeyi” maqomini oldi. 1970-yilda muzey binosini rekonstruksiya qilish boshlandi.

**Tadqiqotda ko'rib chiqilgan zargarlik buyumlari tegishli bo'lgan davrlarga oid topilmalar**

1-jadval

*Tadqiqotda ko'rib chiqilgan zargarlik buyumlari tegishli bo'lgan davrlarning taqsimot jadvali*

<b>DAVRLAR</b>	<b>f</b>	<b>%</b>
XIX asr boshi	4	7.5
XIX asr oxiri	10	19
XIX oxiri -XX asr boshi	5	9.5
XX asr boshi	12	22.5
XX asr o'rtalari	2	3.5
XX asr oxiri	20	38
<b>Jami</b>	<b>53</b>	<b>100</b>

1-jadval ko'rib chiqilsa, kuzatish shakliga kiritilgan qadimiy zargarlik buyumlari turlarining %3,5 XX asr o'rtalariga, %7,5 XX asr boshlariga va %9,5 XIX asr oxiri-XX asr boshlariga, % 19 XIX asr oxirlariga, % 22,5 esa XX asr boshiga, %38 XX asr oxirgi yillariga bog'liq zargarlik buyumlari turlaridan iborat.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, eng ko'p ko'rilgan mahsulotlar ichida XX asr oxiriga tegishli zargarlik buyumlari ekanligi ko'rinib turibdi.

### **Tadqiqotda Ko'rib Chiqilgan Zargarlik Buyumlarini Ishlab Chiqarishda Ishlatiladigan Xom Ashyo Haqida**

2-jadval

Tadqiqotda qo'llaniladigan zargarlik buyumlarini yasashda ishlatiladigan xom ashyolarning taqsimoti jadvali

<b>Hammaddeler</b>	<b>f</b>	<b>%</b>
Kumush	14	26,4
Oltin	6	11,3
Shisha	8	15,2
Marjon	11	20,7

Feruza	6	11,4
Sadaf	5	9,4
Milxior	3	5,6
<b>TOPLAM</b>	<b>53</b>	<b>100</b>

2-jadval tekshirilganda, zargarlik buyumlari xomashyosining kuzatuv shaklida taqsimlanishi tekshirilganda, zargarlik buyumlarida 26.4% kumush ishlatilgan. Shuningdek, 20.7% Marjon, 15,2% Shisha, 11.4% Feruza, 11.3% Oltin, 9.4% Sadaf, 5.6% esa Milxiorlar ishlatilgan.

Ko'rinib turibdiku, ko'rib chiqilgan zargarlik buyumlarida asosan kumush homashyo sifatida ishlatilagan.

### **Xulosa**

Ushbu maqolada, O'zbekiston davlat amaliy san'at va hunarmandchilik davlat muzeyidagi qadimgi zargarlik buyumlarining o'tmishdan hozirgi kungacha bo'lgan holati o'rganilib, olingan ma'lumotlardan tanlangan 53 ta antiqa zargarlik buyumlarida ishlatilgan xom ashyo, qurilish texnikasi, bezak texnikasi, naqsh xususiyatlari va zargarlik buyumlari turlari tahlil etildi.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, ko'zdan kechirilgan zargarlik buyumlariga ziraklar ko'proq kiradi, deyish mumkin. Ziraklardan keyin zebigardon (ko'krak bezagi) va to'g'nog'ichlar keladi.

Tadqiqotda olingan ma'lumotlarga ko'ra, ko'rib chiqilayotgan mahsulotlar orasida XX asrga oid zargarlik buyumlari ko'proq tarqalgan. Aytish mumkinki, har bir davrga oid zargarlik buyumlari saqlanib qolgan va hozirgi kungacha yetib kelgan.

Ko'rinib turibdiki, tadqiqotda ko'rib chiqilgan zargarlik buyumlarining uzunligi asosan 1-26.8 sm. Aytish mumkinki, zargarlik buyumlari orasida marjonlarni va tojlardan tashqari, odatda kichik o'lchamdagi zargarlik buyumlari mavjud.

Tadqiqotda ko'rib chiqilgan zargarlik buyumlarining kengliklari asosan 0-15.5 sm oralig'ida ekanligi aniqlandi Olingan ma'lumotlarga ko'ra, ko'rib chiqilgan zargarlik buyumlari hajmi katta.

Tadqiqotda tekshirilgan zargarlik buyumlarining diametri 1-265 sm oralig'ida, og'irligi esa 1-500 grammni tashkil etgan. orasida ekanligi aniqlandi. Eng og'ir zargarlik buyumlari zebigardon (ko'krak bezagi) lar toifasida, keyin esa tillaqosh hamda bilaguzuklarda joylashgan.

Ko'rinib turibdiki, ko'rib chiqilayotgan zargarlik buyumlarida asosan kumush xom ashyo sifatida ishlatiladi. Qurilish texnikasi sifatida asosan zarb texnikasidan foydalanilgan. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, zargarlik buyumlarida eng keng tarqalgan bezak usullari bo'rttirma va filigra texnikasi hisoblanadi.

Tadqiqotda ko'rib chiqilgan zargarlik buyumlarida; Geometrik naqshlar eng ko'p qo'llanilganligi ko'rinsa-da, geometrik va o'simlik naqshlarining qiymatlari bir-biriga juda yaqin ekanligi e'tiborga loyiqdir.

#### Muzeydagi zargarlik buyumlaridan namunalar





### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

Abu Rayhon Beruniy. (1963). Asarlar to‘plami, 2-jild. Toshkent: Fan nashriyoti, 2326-betlar.

Aristotel. (1980). Poetika. Ruschadan tarjima qiluvchilar: M. Mahmudov va U. Tuychiyev. Toshkent: Fan.

Islomov, N. (1978). O‘zbek xalq zargarlik san’ati. Toshkent: Fan.

Yusupov, R. (1985). Amaliy san’at va hunarmandlik. Toshkent: Fan.

Aliev, R. (1998). O‘zbek xalq amaliy san’ati, Toshkent: Sharq nashriyoti.

Jalilov, M. (2001). Markaziy Osiyo madaniyati va hunarmandchiligi, Samarqand: Imom al-Buxoriy nashriyoti.

Karimova, G. (2007). O‘zbek ayollarining kashtachilikdagi o‘rni, Toshkent:

Ma’naviyat. Yunusov, R. (2004). O‘zbekiston madaniyati tarixi, Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.